



MAHALLIY BYUDJET DAROMAD MANBALARI VA UNDA SOLIQLARNING RO'LI

Samadova Zarina Zafarjon qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
tinglovchisi

e-mail: tursunpulatovaz@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8328822>

ARTICLE INFO

Received: 03rd September 2023

Accepted: 07th September 2023

Online: 08th September 2023

KEY WORDS

Mahalliy byudjet, daromad, xarajat, soliq va soliq turlari, mahalliy hokimiyat.

ABSTRACT

Ushbu maqolada mahalliy byudjetlarning mohiyati, O'zbekiston Respublikasida mahalliy byudjetlarning tuzilmasi va tarkibi, shuningdek, mahalliy byudjetlarning daromadlari tarkibi, va uning daromad manbalari haqida so'z yuritilgan. Mahalliy byudjet daromadlarida soliqlarning roli qay darajada ekanligi ilmiy amaliy yoritib berilgan.

Kirish

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati ustuvor darajada byudjet daromadlarini shakllantirish masalalarining qay darajada yo'lga qo'yilganligi bilan bog'liq. Iqtisodiy islohotlar samaradorligini amalga oshirish ularning moliyaviy jihatdan asoslanganligiga ham bevosita bog'liqdir. Hozirgi kunda hududlarni moliyaviy barqarorligini ta'minlashda mahalliy byudjetlarning ahamiyati yanada ortib bormoqda, shu sababli mahalliy byudjetlarni daromadlarini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi

Jahon tajribasi ko'rsatmoqdaki, aksariyat mamlakatlarda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, investitsion faollikni oshirish, mavjud infratuzilmani yanada yaxshilash, yangi ish o'rinlari yaratish, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirish mahalliy byudjetlar orqali ta'minlanmoqda.

Prezidentimiz ham bu borada shunday degan edilar: "Moliya sohasida soha va hududlarni mutanosib rivojlantirish hisobidan mahalliy byudjetning daromad bazasini kengaytirish zarur. Eng muhimi, tuman va shaharlarda mahalliy byudjetlarning kengaytirilishi aholining turmush darajasi va turmush sharoitini, umuman, barqarorlik va osoyishtalikni yuksaltirishga xizmat qilishi kerak"¹

Xo'sh, mahalliy byudjet deganda nima tushuniladi? Mahalliy byudjetlar - davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda ma'lum ma'muriy birlikning daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. Mahalliy byudjetlar davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasining tashkil etuvchi bir qismi².

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyayevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 2021

2.O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. M harfi. – T.: O'ME davlat ilmiy nashriyoti. – B. 352.



Mahalliy byudjetlarning mohiyatini o'zida mujassam etuvchi yuqorida keltirilgan ta'riflardan kelib chiqqan holda, mahalliy byudjetlarga xos bo'lgan eng muhim xarakterli belgilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin.

- Birinchisi, mahalliy byudjet tegishli viloyat, tuman va shaharlarning ijtimoiy- iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.
- Ikkinchisi, mahalliy byudjetlar mahalliy hokimiyat organlarining o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishlari uchun daromadlar manbalari va tushumlar miqdoriga ega bo'lmog'i lozim.
- Uchinchisi, mahalliy byudjetlar hisobidan mahalliy hokimiyatga bo'ysunuvchi korxonalar, tashkilot va muassasalar moliyalashtiriladi. Bu esa, aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlarini nazarda tutadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tmoq kerakki, mahalliy byudjetlarga xos yuqoridagi xarakterli belgilarning barchasi bir vaqtning o'zida namoyon bo'lgan taqdirdagina ular mahalliy byudjetlarning mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, mavjud infratuzilmani yaxshilash, aholini ijtimoiy himoya qilish, bunyodkorlik va obodonlashtirish kabi muhim vazifalar bilan bog'liq chora-tadbirlarning moliyalashtirilishi, asosan, mahalliy byudjetlar hisobidan amalga oshiriladi. Mahalliy byudjetdan maorif, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, madaniyat va kommunal xo'jalik sohaslariga mablag'lar sarflanadi. Mahalliy byudjetlarning asosiy vazifalari mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari faoliyatini moliyalashtirish, mahalliy iqtisodiyot tarmoqlariga pul mablag'larini taqsimlash, mahalliy byudjetga qarashli korxonalar, tashkilot va muassasalar faoliyatini moliyalashtirish va nazorat qilish kabilardan iborat.

Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlarning roliga baho berish uchun, bizning fikrimizcha, eng avvalo, mahalliy byudjet daromadlarining tarkibi va ularning nimalarga bog'liq ravishda klassifikatsiya qilinishi to'g'risida tasavvurga ega bo'lmoq lozim. Shu munosabat bilan ta'kidlash lozimki, byudjet daromadlari murakkab tarkibga va tarkibiy tuzilmaga ega bo'lib, ular o'zlarining manbalari, ijtimoiy-iqtisodiy xarakteri, mulkchilik shakli, soliq va to'lovlarning turi, mablag'larning tushish shakli, ularni byudjetga undirish metodlari va h.k.larga muvofiq klassifikatsiya qilinishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliqlarning o'rni va ahamiyatini oshirish jarayonlari tadqiq etilgan.

Jumladan, A.Mamanazarov tadqiqot ishi mahalliy budjetlarni barqarorlashtirishda soliqlarning rolini oshirish, H.Qobulov hududiy iqtisodiyot va mahalliy budjetlar imkoniyatlarini oshirish, Z.Ro'ziyev mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish, A.Xayriddinov mahalliy budjetlar daromad bazalarining barqarorligini ta'minlash yo'llarini, A. Burxanov va X.Qurbonovlar mahalliy budjetlar daromadini oshirish, ularning barqarorligini ta'minlash choratadbirlarini amalga oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish hamda keng qo'llash orqali ushbu masalaga tizimli yondashish lozimligini qayd etgan.

N.Xaydarov fikricha mahalliy budjetlarning daromad manbalarini ko'paytirish va viloyatlarda yangi ish o'rinlarini yaratish uchun xorijiy investorlarni jalb etishni



rag'batlantirish zarur. Buning uchun mamlakat bo'yicha xorijiy investorlar qanday turdagi tadbirkorlik va tijorat faoliyati bilan shug'ullana olmaydigan soha va tarmoqlar ro'yxati ishlab chiqilib, qolgan barcha soha va tarmoqlarga yashil yo'l borligi ko'rsatilish lozim.

Prof. L.A.Drobozinaning fikricha, "byudjet daromadlari – bu byudjetga jalb qilinadigan soliqli va soliqsiz mablag'lar³".

Prof. M.P.Afanasev nazarida "byudjet daromadlari – bu amaldagi qonunchilikka muvofiq ravishda tiklanmaydigan va qaytarilmaydigan tartibda davlat hokimiyat organlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining ixtiyoriga kelib tushadigan pul mablag'lari⁴".

Professorlar M.V.Romanovskiy, O.V.Vrublevskaya va B.M.Sabantilar byudjet daromadlarining mohiyatini ifodalovchi quyidagi ta'rifni berganlar: "byudjet daromadlari davlat hokimiyati va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari ixtiyoriga mamlakatda amal qiladigan byudjet va soliq qonunchiligiga muvofiq ravishda tiklanmaydigan va qaytarilmaydigan tarzda kelib tushadigan pul mablag'laridir⁵".

U.O'roqov mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish, qo'shimcha daromad manbalarini yaratish va zaxiralarni aniqlashda mahalliy hokimiyat organlarining manfaatdorligini oshirish zarur, deb hisoblaydi.⁶

N.Yo'ldosheva esa mahalliy byudjetlarni tartibga solish usullarini takomillashtirish orqali ularning daromad manbalarini mustahkamlash va xarajatlar majburiyatlarini optimallashtirishga erishish mumkinligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mahalliy budjetlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda, birinchi navbatda, mahalliy byudjet daromadlarining shakllanish mexanizmi, mahalliy byudjet daromadlari tarkibi va ulushini tahlil qilish, hududlar iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish va undan oqilona foydalanish bo'yicha kompleks choratadbirlarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi mahalliy byudjet daromadlari haqida kengroq tushuncha berish, manbalarini nimadan iborat ekanligini va unda soliqlarning roli qay darajada ekanligini yoritishdan iborat. Tadqiqotning metodologik asosi olimlarning falsafiy, psixologik va pedagogik pozitsiyalari yig'indisida yotadi. Asosan ma'lumotlarni tadqiq qilish, qayta ishlash, tizimlashtirish va taqdim etish masalalariga oid adabiyotlar va ilmiy maqolalarning nazariy tahlili amalga oshirildi.

Ushbu maqola doirasida keys tadqiqoti uni amalga oshirish uchun sifatli tadqiqot usuli sifatida qabul qilindi. Xususan, ochiq savollarga asoslangan va sifatli ma'lumotlarni taqdim etuvchi sifatli intervyulardan foydalanildi. Ochiq savollar tadqiqot sohasida bir qator afzalliklarni beradi, chunki ular suhbatdagi keskinlikni kamaytiradi, hamkorlikni rag'batlantiradi va tadqiqotchi va suhbatdosh o'rtasida aloqa o'rnatadi.

³ Қаранг: Финансы. Учебник для вузов. Под ред. проф. чл.-корр. РАЕН Л.А.Дробозиной. – М.: ЮНИТИ, 2003. с.518.


⁴ Қаранг: М.Афанасьев. Основы бюджетной системы. Учебники высшей школы экономики. – М.:Изд. дом ГУ ВШЭ, 2004. с.52.

⁵

⁶ Uroqov Uchqun. Increasing the independence of local budgets in the social and economic development of the regions. // International Journal of Economics, Commerce and Management. United Kingdom ISSN 2348 0386 Vol.VII, Issue12, December 2019

Tahlil va natijalar. Mahalliy byudjetlar milliy iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni amalga oshirishda - birinchi navbatda jamiyatning ijtimoiy infratuzilmasini saqlash va rivojlantirish uchun davlat mablag'larini taqsimlashda katta ahamiyatga ega. Bu mablag'lar mahalliy byudjetlar tizimidan o'tadi, ular 29 mingdan ortiq Shahar, tuman, viloyat va qishloq budjetlarini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 1-yanvardan kuchga kirgan "Byudjet kodeksi"ning 35-moddasiga muvofiq, mahalliy byudjetlar tarkibiga kiruvchi byudjetlar quyidagi byudjetlarni o'z ichiga oladi (1-rasm).




1-rasm. O'zbekiston Respublikasi mahalliy byudjetlar tarkibiy tuzilmasi salmog'i.⁷

O'zbekiston Respublikasida mahalliy byudjetlarga biriktirilgan mahalliy soliq va tushumlar xamda har yili yangi byudjet yili uchun davlat byudjetini tasdiqlash mobaynida davlat tomonidan mahalliy byudjetlarga biriktirilgan daromadlardan tashkil topadi. Mahalliy byudjetlar O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetida muhim tarkibiy qismni tashkil etadi va mahalliy hukumat organlarining faoliyat ko'rsatishlarida moliyaviy manba bo'lib hisoblanadi.

Ko'pchilik mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar mahalliy budjetlar daromadlarini tasniflashda o'z daromadlari, biriktirilgan daromadlar, tartibga soluvchi daromadlar hamda moliyaviy transfertlarga ajratishadi (2-rasm).

Mahalliy byudjetlarning o'z daromadlari (o'zlarining daromadlari) deganda qonunchilik bo'yicha to'liq mahalliy byudjetlarga biriktirilgan daromad manbalari tushuniladi.

⁷ Uchqun O'roqov, Ilhom Irgashev, Orzimurod G'aybullayev Fuqarolar ishtirokidagi mahalliy byudjet 2022



2-rasm. Mahalliy byudjet daromadlar tarkibi⁸

1. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar.

Mahalliy soliqlar va yig'img'lar - hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishmanbaini vujudga keltirish, tabiiy resurslar va mulklardan oqilona foydalanish, mahalliy hokimiyat organlarining faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratish maqsadida joriy etilgan.

- yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i;
 - yuridik va jismoniy shaxslarning yer solig'i;
 - yagona yer solig'i;
 - ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi;
- ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish uchun yig'im va boshqalar.

2. *Bozorlardan tushadigan daromadlar.* Tegishli ma'muriy hudud (viloyat, tuman, shahar)da joylashgan turli xil bozorlar (dehqon bozorlari, buyum bozorlari, chorvachilik mollari bozori va boshqalar)dan tushadigan daromadlar (bir martalik patta to'lovlari) ham mahalliy budjetlarning o'z daromadlari qatoriga kiradi.

3. *Yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari.* Bunday daromadlarga odatda sovg'a, hadya ko'rinishda, shuningdek, beg'araz homiylik ko'rinishida taqdim etilgan daromadlar kiradi.

⁸ Uchqun O'roqov, Ilhom Irgashev, Orzimurod G'aybullayev Fuqarolar ishtirokidagi mahalliy byudjet 2022



4. *Boshqa daromadlar.* Boshqa daromadlarga davlat daromadiga o'tkazilgan mol- mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga berishdan va sotishdan belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlardir.

Biriktirilgan daromadlar esa qonunan respublika budjetiga tushishi lozim bo'lgan ba'zi umumdavlat soliqlarini ushbu mahalliy budjetning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun to'liq biriktirishdan hosil bo'lgan daromadlardan iborat.

Tartibga soluvchi daromadlar esa respublika budjetiga undirilishi belgilangan katta salohiyatli soliq turlari va boshqa majburiy to'lovlardan mahalliy budjetlarga ma'lum bir ajratmalar normativlar asosida qoldirilgan qismi bo'lib, u mahalliy budjetlarning daromadlari va xarajatlari mutanosibligini ta'minlash uchun beriladi.

Moliyaviy transfertlar esa budjetlar muvozanatini ta'minlash uchun yuqori budjetdan quyi budjetga beriluvchi daromadlardir. Moliyaviy transfertlar tarkibini ijtimoiy va tartibga soluvchi transfertlar sifatida tavsiflash mumkin.

Mahalliy soliqlarga xos bo'lgan ba'zi umumiy xususiyatlar sifatida va respublika soliq tizimida yig'implarni quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

-mahalliy soliqlar va yig'implar hududlarning ehtiyojlari uchun ishlatiladi mahalliy davlathokimiyati organlarining yurisdiksiyasi;

-ularning asosiy qismi to'g'ridan-to'g'ri mahalliy davlat hokimiyati organlarining o'zlari tomonidan joriy etiladi, ularni huquqiy tartibga solishda esa mahalliy davlat hokimiyati organlariga ma'lum vakolatlar beriladi, ular respublika qonunchiligi bilan ham hisobga olinishini talab qiladi va hokazo.


1-jadval

Mahalliy budjet daromadlarining o'zgarish dinamikasi (milliard so'mda)⁹

No	Viloyatlar	2020	2021	2022
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	2743,9	1614,2	2356,2
2.	Andijon viloyati	2105,9	2352,2	3059,3
3.	Buxoro viloyati	1782,9	1935,4	2903,9
4.	Jizzax viloyati	1058,0	1212,9	1727,1
5.	Qashqadaryo viloyati	2468,8	2570,3	3482,9
6.	Navoiy viloyati	1540,9	1535,8	2186,3
7.	Namangan viloyati	1763,0	1970,6	2903,1
8.	Samarqand viloyati	2385,6	2657,0	3955,7
9.	Surxandaryo viloyati	1605,7	1754,7	2466,9
10.	Sirdaryo viloyati	716,5	745,7	1104,5
11.	Toshkent viloyati	2395,5	3009,8	4378,9
12.	Farg'ona viloyati	2677,3	2904,9	4242,5
13.	Xorazm viloyati	1302,7	1442,7	2220,6
14.	Toshkent shahri	3156,3	4068,6	6044,6
15.	Jami	27702,9	29774,8	43032,5

⁹ <https://openbudget.uz/publicbudget>

Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tahlil qilingan yillarda viloyatlar mahalliy byudjetlari daromadlari o'sish tendentsiyasiga ega. Mahalliy byudjetlar O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining muhim qismi bo'lib, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini moliyalashtirishning muhim manbai hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar mahalliy ehtiyojlarni to'liq qondirish va ularning bajarilishini davlat tomonidan markazlashtirilgan tartibda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshirish imkonini beradi. Hududlarning mahalliy davlat hokimiyati organlariga mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirish va resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish vazifasi kiritildi.



3-rasm. Mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarning o'zgarish dinamikasi mlrd, so'mda¹⁰

Tahlil etilayotgan yillarda mahalliy budjetlar daromadlari mahalliy budjetlar xarajatlariga nisbatan doimiy ravishda kamni tashkil etmoqda. Ayniqsa so'nggi yillar ularning orasidagi tafovut sezilarli ravishda farqlanganligini, ya'ni xarajatlarning keskin oshib ketganligini ko'rishimiz mumkin.

2020 yildan boshlab mahalliy budjetni samarali shakllantirish va undan oqilona foydalanish yuzasidan mahalliy hokimiyat va mahalliy kengashlarga bir qator vakolatlar berildi.

Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari tegishli ravishda:

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan, viloyatlar va Toshkent Shahar mahalliy budjetlaridan, tumanlar va shaharlar budjetlaridan hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan budjet mablag'larining cheklangan miqdorlarini hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetidan, viloyatlar viloyat budjetlaridan va Toshkent shahri shahar budjetidan tumanlar va shaharlar budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlarning cheklangan miqdorlarini tasdiqlaydi;

¹⁰ <https://openbudget.uz/publicbudget>



Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar viloyat budjetlari, Toshkent shahri shahar budjeti, tumanlar va shaharlar budjetlari daromadlarining prognozini ma'qullaydi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent Shahar mahalliy budjetlari, tumanlar va shaharlar budjetlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qarorlar qabul qiladi..

2-jadval

2019-2021 yillarda mahalliy budjetlar daromadlarining tarkibi va uning o'zgarishi1 (mlrd.so'mda)¹¹

№	Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021
1	Mahalliy soliqlar va yig'imlar	5396,4	5 178,3	7 703,2
2	Biriktirilgan daromadlar	5378,6	4 847,3	7 144,3
3	Tartibga soluvchi daromadlar	23853,4	16 947,7	19 279,1
4	Boshqa daromadlar	505,8	729,6	1 046,3

Ushbu jadval orqali mahalliy byudjet daromadlari tarkibi va uning o'zgarishi 3 yillik ma'lumotlari keltirilgan. Mahalliy byudjet daromadlari ko'p bo'lmagan qismi, albatta, soliqlardan shakllanishini ko'rishimiz mumkin. Oxirgi yillarda mahalliy byudjet daromadlari tarkibida mahalliy soliqlarning ulushi kamaygan.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i va benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning respublika soliqlariga birlashtirilishi mahalliy budjet daromadlarida mahalliy soliqlarning kamayishiga olib kelgan. Bundan ko'rinib turibdiki, mahalliy budjet daromadlarini faqat o'z daromadlari ya'ni, mahalliy soliqlar hisobiga shakllantirish imkoniyati kamaygan. Bizningcha, bugungi kunda mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash uchun soliqqa oid qonunchilik asosida mahalliy soliqlar ro'yxatini kengaytirish lozim.

Xulosa va takliflar.

Mahalliy byudjet hamda uning daromad manbalari, daromadlarini shakllantirish jarayonida soliqlarning ahamiyatini o'rganish hamda mahalliy byudjet daromadlari tarkibini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

- Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlarning rolini oshirish masalasi borasida tadqiqot olib borishning dastlabki bosqichida, eng avvalo, "mahalliy budjet daromadlari manbalari", "budjet daromadlarini shakllantirish"ning mohiyatini aniqlab olib, undan so'ng "budjet daromadlarini shakllantirish prinsiplari"ni shakllantirmoq lozim. Bu masalalarga nisbatan aniq bir pozitsiyaga ega bo'lmasdan turib, yuqoridagi masalani hal qilishga kirishish o'zining ma'nosiga ega emas.
- Mahalliy byudjet daromadlarining asosiy qismi soliqlar yordamida shakllanganligi uchun ularning asosida quyidagi prinsiplar yotishi kerak: soliqlarning byudjetga olinishi mamlakat milliy boyligi manbalarining tugashiga olib kelmasligi; soliqlar ularni to'lovchilar o'rtasida teng (adolatli) taqsimlanmog'i; soliqlarning ishlab chiqaruvchilar aylanma fondlari

¹¹ <https://openbudget.uz/publicbudget>



hajmiga ta'sir ko'rsatmasligi; soliqlarning sof daromadga nisbatan hisoblanishi; davlat uchun soliqlarning undirilishi iloji boricha arzonroq bo'lishi; soliqlarning undirilish jarayoni xususiy sektorni siqib chiqarmasligi kerak;

➤ Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishning prinsiplari uning barcha daromadlariga, ularning asosiy qismi bo'lgan soliqlarga va shu jumladan mahalliy soliqlarga ham to'liq tegishlidir;

Yuqorida tahlil natijalarida mahalliy byudjet daromad tarkibida soliqning ulushi kamaygani ko'rganimiz bilan soliqlar soliqlarning roli yuqori ekanligini bildik. Shu sababli soliq yukini kamaytirib boraberish kerak lekin bu daromadga o'z ta'sirini ko'rsatmasligi zarur. Tabbirkorlikka katta e'tibor qaratmoq lozim.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 25 dekabrda "2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-657 son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 dekabrda "2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-589 son Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 24.12.2018 yildagi "Soliq va budjet siyosatining 2019 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-508 son Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasining 30.12.2017 yildagi "Soliq ma'muriyatchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-455 son Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.12.2018 yildagi "O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga budjet mo'ljallari to'g'risida"gi PQ4086 sonli Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining "2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4555 sonli Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2021 y.
8. Achilov U.U. "Byudjet tasnifi" fanidan o'quv-uslubiy majmua.—T.: TMI, 2019.
9. G'aybullayev O., O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. – T.: "Baktria press", 2016 y.
10. Nurmuxamedova B.I. Davlat budjeti. Darslik. – T.: "IQTISOD MOLIYA", 2018. -630 b.
11. Uroqov Uchqun, Yuldasheva Nadira, Nuritdinova Vasila, Tukhtabayeva Sogdiana. Budgetary methods for local budgets. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. DOI: 10.5373/JARDCS/V12I6/ S20201165
12. Uroqov Uchqun. Increasing the independence of local budgets in the social and economic development of the regions. // International Journal of Economics, Commerce and Management. United Kingdom ISSN 2348 0386 Vol.VII, Issue12, December 2019
13. Uchqun O'roqov, Ilhom Irgashev, Orzimurod G'aybullayev "Fuqarolar ishtirokidagi mahalliy byudjet" 2022



14. Финансы. Учебник для вузов. Под ред. проф. чл.-кorr. RAYEN L.A.Drobozinoy. – М.: YUNITI, 2003. s.518.
15. М.Аfanasev. Основы бюджетной системы. Учебники высшей shkoli ekonomiki. – М.:Izd. Dom GU VSHE, 2004. s.52.
16. Byudjet g'azna ijrosi hisobi: Darslik /S.Mexmonov, I.Qo'ziyev, A. Kuliboyev, A.Ostonokulov; – 2020. 252 b.
17. www.openbudget.uz O'zbekiston Respublikasi Ochiq byudjet portali
18. www.lex.uz O'zbekiston qonunchiligi